



№ 1/2026

ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

ADPI
Ilmiy xabarnomasi



ADPI Ilmiy xabarnomasi

№ 1 2026 fevral

Jurnal 2023-yildan chop etilmoqda

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
2022-yil 25-oktyabrda
№ 045013 raqam bilan ro'yxatga olingan
ISSN 2181-4309

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va
innovatsiyalar vazirligi huzuridagi
Oliy attestatsiya komissiyasi
Rayosatining 2024-yil 8-maydagi
№354-sonli qarori bilan
Pedagogika fanlari bo'yicha Oliy attestatsiya
komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy
natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar
ro'yxatiga kiritilgan.

Tahririyat manzili: 170100 Andijon shahri,
"Do'stlik" ko'chasi, 4uy, 216-xona.
Electron manzil: info@adpi.uz
Telegram: ADPI_Ilmiy_xabarnomasi
Telefon raqamlari: +998 91 484 40 90

1/1

BOSH MUHARRIR:
B.M. Rasulov- tarix fanlari doktori (DSc), professor
Mas'ul muharrir:
B.A. Sirojiddinov- biologiya fanlari doktori (DSc), professor

TAHRIR KENGASHI

S.Z. Zaynobiddinov- O'zRFA akademigi
I.R. Asqarov- kimyo fanlari doktori, professor
Sh.X. Yo'lchiyev- fizika-matematika fanlari doktori, (DSc), professor
A.E. Zaynabiddinov- biologiya fanlari doktori, professor
B.X. Amanov- biologiya fanlari doktori (DSc), professor
A.A. Egamberdiyev- falsafa fanlari doktori (DSc), professor
M.V. Xalimova- psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Sh.J. Yusupova - pedagogika fanlari doktori, professor
Z.E. Azimova- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
M.B. Artiqova- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
V.A. Qodirov- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
N.J. Abdullayeva- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
M.A. Tojiboyeva – filologiya fanlari doktori, professor
Sh.A. Xaitov- tarix fanlari doktori (DSc), professor
A.G. G'aniyev- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
M.K. Pozilov -biologiya fanlari doktori (DSc). professor
T.T. Kaziyeva- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
U.A. Usmanova- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
D.T. Samatov- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
A.Xakimov- pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
M.T.Parpiyev- falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent
A.A. Zaparov- texnika fanlari nomzodi, professor
U.A. Saliyev- tarix fanlari nomzodi, professor
M.I. Israil- filologiya fanlari doktori, professor
L.A. Muxammadjonova- falsafa fanlari nomzodi, professor
Sh.A. Xasanov - pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
X.T. Komilova pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
M.Sh. Alimova - siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Q. Ibaybullayev- falsafa fanlari nomzodi, dotsent
D.T. Samatov- pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
O'M. Muxtarov- falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
S.N. Yusupova- tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
B.M. Do'monov- pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
E.A. Tajimirzayev- tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
K.S. Karimov – tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
A.A. Yuldashyev- biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
M.J. Abduraxmonova - biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
M.M. Muydinova- fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
J.B. Qoraboyev- filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
N.T. Mo'ydinov- kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
D.A. Sobirova- filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
E.B. Abdullayev- falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'.Sh. G'ulomov- biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
L.S. Yunusov - biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
U.Sh. Uktamov - geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
M.G'. Ergasheva - tarix fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD)
N.S. Yaqubov- tarix fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD)
M.I. O'rinboev- pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muharrirlar:
O.Karimov,
U.Malikova,
B. Mashrabova.

MUNDARIJA

PEDAGOGIKA

Hasanov Sh.A. Adabiyot fani o'qituvchisining kasbiy kompetensiyalari talqini	4
Qoraboyev J.B. "Giperbola konseptual semantikasi"ni voqelantiruvchi til birliklarining lingvokognitiv, psixolingvistik, sotsiolingvistik va lingvostilistik tavsifi	8
Umurzaqova N.S. Bo'lajak farmaseftlarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi	13
Камалходжаева С.С. Язык как объект лингвистического исследования	16
Абдуллаева А.Э. Современные и передовые педагогические технологии в преподавании иностранных языков	19
Karimov O.T., Mirzayev O.X. Talabalarni iqtidorli o'quvchilar bilan "lumiyyera" metodi asosida ishlashga tayyorlashning didaktik imkoniyatlari	23
Jo'rayeva M.A. Kasbiy tayyorgarlikni integrativ yondashuv asosida shakllantirish	29
Ikromov M.X., Abduraimova M.A. Talabalarga muhandislik kompyuter grafikasidan foydalanib o'qitishning mazmuni	33
Ikromov M.X., G'ulomova M.N. Rangtasvir darslarida axborot-kommunikatsiya va vizual texnologiyalardan foydalanish	37
Mamatisaqova G.A. Farmasevtika ishi yo'nalishida kompetensiyaga asoslangan ta'limni rivojlantirishda xorij tajribasi	41
Mamadaliyev B.K. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilar uchun kreativ fikrlashni rivojlantiruvchi amaliy mashg'ulotlar tizimini ishlab chiqish	45
Axmedova D.X. Boshlang'ich ta'limda ijodiy yozuv ko'nikmalarini shakllantirishning yangi metodlari	48
Kosimova G.M. Yangi pedagogik texnologiyalar vositasida darsliklar bilan ishlash bo'yicha o'quv jarayonini loyihalash	53
Xoldarova M.Q., Tairova M.B. Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarida nutq o'stirish darslari orqali "soft skills" ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi	57
Abdurahmonova H.V. Saniye Benjik Kangalning o'yin pedagogikasi va rivojlantiruvchi muhit haqidagi qarashlari	61
Xurshidbekov A.M. Erkin kurashchilarda tezlik sifatining shakllanishi va rivojlanishining uslubiy asoslari	67
Olimjonov O.O. Integratsiyalashgan tarbiya: talabalarda jismoniy salohiyat va ma'naviy immunitetni shakllantirish usullari	71
Usarov M.M. Talabalar estetik kompetensiyalarini rivojlantirishda milliy xalq o'yinlaridan foydalanining dolzarbligi	75
Karimova F.Z. Integrativ yondashuv asosida bolajak tarbiyachilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashning nazariy -metodologik asoslari	80
Xakimov Sh.T. Yosh belbog'li kurashchilarga texnik usullarni o'rgatish bosqichlari	83
O'rinboyev L.X. Farmakodinamikaning fan sifatida farmakologiyada tutgan o'rni	89
Sobirjonov I.T. Farmakokopetentlik tushunchasi va uning asosiy komponentlari	95
No'monova G.D. Klinik farmakologiya fani o'qitish tizimining amalyotdagi holatini kredit-modul tizimi asosida tashkil etish	100
Xodjayev M.K. Oliy ta'lim muassasalarida futbol murabbiylarini tayyorlashning pedagogik aspektlari	105
Kodirov M.A., Otashev D.R. Basketbolda sportchilarni jaroxatlanishni oldini olish va tiklash usullari	110
Samatov D.T., Abdullaev G'A. Umumta'lim maktablarida yuqori sinf o'quvchilarining maxsus jismoniy tayyorgarligini darsdan tashqari mashg'ulotlar asosida rivojlantirishning pedagogik modeli	114
Samatov D.T., Abdullaev G'A. Umumiy o'rta ta'lim o'quvchilarining jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishda darsdan tashqari mashg'ulotlarni innovatsion yondashuv asosida tashkil etish metodikasi	118
Mullajonov Sh.I. Sport turlarining tavsifi va sportchi faoliyatida ruhiy tayyorgarlikning roli	124
Otashev D.R., Otasheva O.H. O'smirlarnigh psixologik munosabatlari shakllantirishda jismoniy tarbiyani o'rni	129

3. Soft skillsni rivojlantirishga yo'naltirilgan dars modeli talabalar shaxsiy o'sishini ta'minlaydi va ularni kelajakdagi kasbiy faoliyatga tayyorlaydi.

Shunday qilib, soft skills komponentlarini nutq o'stirish faniga integratsiya qilish pedagogik tayyorgarlikni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqadi. Kommunikativ o'yinlar yumshoq ko'nikmalarni shakllantirishning eng samarali usullaridan biridir. O'yin jarayonida talaba passiv tinglovchi bo'lib qolmaydi, balki faol muloqot ishtirokchisiga aylanadi. Shu orqali u o'z nutq faoliyatini boshqarishga, o'z fikrini aniq yetkazishga, jamoa a'zolar bilan o'zaro kelishib ishlashga o'rganadi.

Interaktiv o'yinlar orqali shakllangan soft skills keyinchalik talabalarning pedagogik faoliyatida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Kommunikativ o'yinlardan foydalanish maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalari soft skills ko'nikmalarini rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega. Ular talabalarda kommunikativlik, empatiya, ijodkorlik, kommunikativlik va jamoada ishlash kompetensiyalarini shakllantiradi. Shu bois nutq o'stirish darslarida kommunikativ o'yinlarni tizimli ravishda qo'llash zamonaviy ta'lim jarayonining ajralmas tarkibiy qismiga aylanishi lozim.

Nutq o'stirish darslari maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarida yumshoq ko'nikmalarni shakllantirishning muhim pedagogik vositasi hisoblanadi. Tadqiqot natijalari nutq mashg'ulotlari orqali kommunikativlik, jamoada ishlash, ijodiy fikrlash va ijtimoiy faollik kabi soft skills samarali rivojlanishini ko'rsatadi.

Shu bois, maktabgacha ta'lim mutaxassislarini tayyorlash jarayonida nutq o'stirish faniga soft skillsni rivojlantirishga yo'naltirilgan metodik yondashuvlarni keng joriy etish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tuychiyeva S.M. "Bo'lajak mutaxassislarda kasbiy amaliy kompetentlikni dinamik rivojlantirishning psixologik xususiyatlari" nomli dissertatsiyasi (21-23) Toshkent 2025 (www.ziyonet.uz)

2. Давидова В. Tinglash, gapirish va kelishish: soft skills nima va ularni qanday rivojlantirish mumkin. <http://theoryandpractice.ru/posts/11719-soft-skills>.

3 Жадько Н. В., Чуркина М. А. Hard skills va soft skillsni o'qitish – ularning farqi nimada? <http://hr-portal.ru/article/obuchenie-hardskills-i-soft-skills-v-chyom-raznica>.

4. Sidiqova Y. S. Yumshoq ko'nikmalarni ta'lim jarayonida shakllantirish metodlari // Pedagogik tadqiqotlar jurnali. 2020. №4. 57-b.

5. Karimova V.M. Pedagogik muloqot psixologiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2018.

6. G'ofurov A. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. – Toshkent, 2021.

UO'K: 373.2:159.922.7.

SANIYE BENJIK KANGALNING O'YIN PEDAGOGIKASI VA RIVOJLANTIRUVCHI MUHIT HAQIDAGI QARASHLARI

<https://zenodo.org/records/18754664>

Abdurahmonova Hilola Valijon qizi

Andijon davlat pedagogika instituti

Annotatsiya. Mazkur maqolada turkiyalik pedagog-psixolog Saniye Benjik Kangalning o'yin asosidagi ta'lim, rivojlantiruvchi muhitni tashkil etish va bolalarda hissiy intellektni shakllantirishga oid qarashlari tizimli ravishda tahlil qilingan. Olimaning yondashuvi Montessori va Reggio Emilia pedagogikasi, shuningdek, Sharq tarbiyasining asosiy tamoyillarini integratsiya qilishi bilan ajralib turadi. Tadqiqotdan maqsad – Kangalning pedagogik konsepsiyasini ilmiy asosda yoritish hamda maktabgacha ta'lim jarayonida qo'llash imkoniyatlarini aniqlash.

Kalit so'zlar: o'yin pedagogikasi, rivojlantiruvchi muhit, emotsional intellekt, Montessori, Reggio Emilia, maktabgacha ta'lim.

Аннотация. В данной статье системно проанализированы взгляды турецкого педагога-психолога Сание Бенджик Кангал на игровое обучение, организацию развивающей среды и формирование эмоционального интеллекта у детей. Подход учёного отличается интеграцией принципов педагогики Монтессори и Реджо Эмилия, а также основных положений восточного воспитания. Цель исследования — научно осветить педагогическую концепцию Кангал и определить возможности её применения в процессе дошкольного образования.

Ключевые слова: игровая педагогика, развивающая среда, эмоциональный интеллект, Монтессори, Реджо Эмилия, дошкольное образование.

Abstract. This article analyzed a systematic analysis of the views of Turkish educator-psychologist Saniye Benjik Kangal on play-based learning, the organization of a developmental environment, and the formation of emotional intelligence in children. The scholar's approach is distinguished by the integration of principles from Montessori and Reggio Emilia pedagogy, as well as key tenets of Eastern upbringing. The aim of the study is to present Kangal's pedagogical concept on a scientific basis and to identify possibilities for its application in the preschool education process.

Keywords: play pedagogy, developmental environment, emotional intelligence, Montessori, Reggio Emilia, preschool education.

So'nggi yillarda maktabgacha ta'limda bolaning tabiiy rivojlanishiga asoslangan pedagogik yondashuvlar tobora katta e'tibor qozonmoqda. Xususan, dunyo miqyosida Sharq pedagogikasining maktabgacha ta'limdagi yondashuvi katta qiziqish uyg'otmoqda. Bu borada turkiyalik olim va bolalar rivojlanishi bo'yicha mutaxassis Saniye Benjik Kangalning faoliyati ham keng e'tirof qozongan. Turkiyaning Hajettepa universitetida ilmiy faoliyat olib borayotgan olim ota-ona – bola muloqoti va o'yin orqali ta'lim yo'nalishidagi tadqiqotlari bilan mashhur. Ko'plab tarbiyaviy va ilmiy-ommabop kitoblar – "Qo'rqma! Sen yaxshi onasan", "Avlod", "Oilangiz pulti", "Jasorat doim yonimda", shuningdek, maktabgacha yoshdagi bolalar uchun rivojlantiruvchi dasturlar muallifi bo'lgan olimaning "Akademik ona" loyihasi ota-onalar va pedagoglarga amaliy ko'mak beruvchi platformaga aylangan. Uning ilmiy qarashlari aynan bolani "kuzatiladigan obyekt" emas, balki faol subyekt sifatida ko'rishga asoslangan bo'lib, u ta'lim jarayonida yosh bolaning tabiiy rivojlanish ehtiyojlarini ustuvor deb biladi [1]. Olima ta'lim jarayonining markazida tayyor bilim emas, balki bolaning mustaqil tajribasi turishi kerakligini ta'kidlaydi [2].

Ushbu maqolada Kangal pedagogikasining uch asosiy komponenti:

- 1) bolaning tabiiy rivojlanish tamoyillari;
- 2) o'yin asosidagi integrativ ta'lim modeli;
- 3) emotsional intellektni rivojlantirish metodikasi ilmiy tahlil qilinadi.

Bolaning tabiiy rivojlanish tamoyillari. Bolaning rivojlanishi bir necha asosiy tamoyillar asosida kechadi va bu tamoyillar uning jismoniy, psixik hamda ijtimoiy shakllanishini belgilaydi. Avvalo, bola rivojlanishi irsiy omillar va muhit ta'sirining o'zaro birligi orqali yuzaga chiqadi. Ya'ni tug'ma qobiliyatlar va oilaviy, ijtimoiy sharoitlar birgalikda bolaning o'sish sur'atiga ta'sir qiladi. Rivojlanish har doim ketma-ket bosqichma-bosqich kichadi: bola avval boshqacha harakatlarni o'zlashtiradi, keyin murakkabroq faoliyatlarga o'tadi. Bu bosqichlar tartibi o'zgarmaydi, har bir bolaning rivojlanish tezligi farq qilishi mumkin. Shu bilan birga, rivojlanish izchil va uzluksiz jarayon bo'lib, u kundan-kunga davom etadi; ba'zan tezlashadi, ba'zan sekinlashadi, lekin to'xtab qolmaydi. Bolaning rivojlanishida individual xususiyatlar juda muhim: har bir bola o'ziga xos sur'atda o'sadi, shuning uchun ularni bir-biri bilan solishtirish yaxshi emas. Rivojlanishning yana bir muhim jihati – bolaning faolligi. Bola o'yin, kuzatish va mustaqil tajriba orqali dunyoni taniydi, shuning uchun uning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash zarur. Bundan tashqari, bola ijtimoiy mavjudot bo'lgani uchun uning rivojlanishi

muloqot va ijtimoiy muhit bilan bevosita bog'liq. Kattalar va tengdoshlar bilan muloqoti oshgani sari, uning nutqi, fikrlashi, xulqi va ruhiy olami shakllanadi.

Kangalning fikricha, bola tug'ilgan paytdan boshlab o'z rivojlanishining faol subyekti bo'lib, unda atrof-muhitni o'rganishga qaratilgan tabiiy ehtiyoj mavjud. Ya'ni bola tug'ilganidan boshlab o'zi rivojlanishga tayyor, o'rganishga tabiiy ehtiyojga ega bo'lgan faol mavjudotdir. Kattalarning vazifasi – uning tabiiy rivojlanishiga sharoit yaratish hisoblanadi. Bu g'oya J. Piagening kognitiv rivojlanish haqidagi nazariyasiga yaqin bo'lib, bola faol tajriba orqali fikrlash operatsiyalarini shakllantiradi [3].

Kangal o'z ishlarida bolaning tabiiy ritmini hurmat qilishni, unga ortiqcha buyruqbozliksiz mustaqil o'rganish imkonini berishni pedagogik jarayonning asosiy sharti deb hisoblaydi. Ya'ni bola buyruq ma'nosidagi ishlardan ko'ra, taklif qilingan ishlarni bajarishni yaxshi ko'radi. Bunda bolaga ikki ishdan birini qilish taklif qilinsa, u rad javobini beri o'rniga birini tanlash huquqiga ega bo'ladi. Albatta bu o'yin tarzda bajarilsa, bola uchun qilinadigan ishning qiymati oshadi. Masalan, "Bolajonim, qara o'yinchoqlaring uylarini yo'qotib qo'yishibdi. Ularni uylariga joylashtirishda qaysi biridan boshlaysan, katta o'yinchoqlaringdanmi yoki kichiklaridan?"

Olima ta'kidlashicha, o'yin jarayonida bolada kuzatish, tajriba qilish, taqqoslash rivojlanib, sabab-oqibat bog'lanishlarini o'zi kashf etadi; ijtimoiy va emotsional vaziyatlarni sinovdan o'tkazadi. Bu jarayon L. Vygotskiyning "yaqin rivojlanish zonasi" haqidagi g'oyalariga mos keladi, ya'ni o'yin bola uchun yuqoriroq darajadagi fikrlash imkonini yaratadi [4]. Bola mustaqil bajara olmaydigan vazifalarni kattalar ko'magi bilan bajara oladi va aynan shu jarayon uning yangi ko'nikmalarni egallashga yordam beradi. nihoyat bolaning rivojlanishi uyg'un jarayon bo'lib, jismoniy, aqliy, ma'naviy va emotsional rivojlanish bir-birini to'ldiradi. Kangal bolaning fikrlashi qo'l harakati, sezgi, predmetlar bilan bevosita o'zaro ta'sirda rivojlanishini ta'kidlab, sensor muhitning sifatiga o'ziga xos ahamiyat beradi. Bunda M. Montessori muhitidagi kabi ochiq, tartibli, bolaning mustaqil tanloviga imkon beruvchi materiallar taklif qilinadi. Olima an'anaviy "hamma bir xil bajarishi kerak" tamoyilini yoqlamaydi. U har bir bolaning psixologik, fiziologik va ijtimoiy rivojlanish sur'ati bir xil bo'lmasligini ta'kidlaydi. Jumladan, ta'lim jarayoni ham moslashuvchan, individual ehtiyoj va qiziqishlarga yo'naltirilgan bo'lishi lozim.

O'yin asosidagi ta'lim metodi: M. Montessori, Reggio Emilia va Sharq pedagogikasi sintezi. Kangalning o'yin pedagogikasi birgina metod bilan cheklanmaydi. U bir vaqtning o'zida zamonaviy g'arbiy yondashuvlar va Sharq tarbiya maktabining qadriyatlarini integratsiya qilish orqali ko'p qatlamli konsepsiyani yaratgan. Masalan, M. Montessori pedagogikasidan olgan tamoyillarida: bola o'zini mustaqil boshqara olishi, unga tartibli, maqsadli tashkil qilingan predmetlar muhiti, hamda bu muhitda kattalarning aralashuvi minimal bo'lishi lozim [5]. Kangal qo'llaydigan yana bir metod – bu Reggio Emilia modeli. Biz uchun u qadar tanish bo'lmagan bu metod – Italiyadagi Reggio Emilia shahrida Loris Malaguzzi tomonidan yaratilgan, bolani ijodkor, qobiliyatli va cheksiz imkoniyatlarga ega shxs sifatida ko'radigan zamonaviy ta'lim yondashuvidir. Bu metod maktabgacha ta'limda juda mashhur bo'lib, bolalarning mustaqil fikrlashini, ijodkorligini va jamoadagi hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Reggio Emilianing modeli bolani "kuchli, ijodkor va o'rganuvchi shaxs" sifatida ko'radi. Kangal quyidagi g'oyalarni o'z metodikasida qo'llaydi:

- loyiha asosidagi izlanish faoliyati;
- ijodkorlikning "100 tilda" ifodalanishi (san'at, harakat, qurilish, drammatizatsiya va b.);

- tarbiyachining “yo’ldosh” roliga bo’lishi [7].

Sharq tarbiya maktabida mehr-muruvvat, odob-axloq, ruhiy uyg’unlik va tarbiyachi shaxsining namunasi yetakchi o’rin tutadi. Bu qadriyatlar Kangal metodikasida bolaga muloyim, hurmatga asoslangan munosabatda bo’lish; tinch, osoyishta muhit yaratish; kattalarning tarbiyaviy ehtiyotkorligida (adab, muvozanat, sabr) namoyon bo’ladi. Sintez natijasida Kangal ta’lim olamga quyidagi yangiliklarni taklif etadi:

- o’yin – markaziy didaktik vosita;
- muhit – faol o’qituvchi;
- bolalar – mustaqil tadqiqotchilar;
- tarbiyachi – kuzatuvchi, yo’naltiruvchi va muhitni tashkil qiluvchi shaxs.

Emotsional intellektni rivojlantirishga qaratilgan metodik yondashuv.

Emotsional intellekt (EI)ni rivojlantirish Kangal pedagogikasining eng muhim bo’limlaridan biridir. D. Mayer va P. Salovey modeliga ko’ra EI – hislarni tanish, tushunish, boshqarish va ijtimoiy vaziyatlarda samarali qo’llash qobiliyatidir [8]. Kangal bu ko’nikmalarni o’yin orqali shakllantirishni maqsadga muvofiq deb biladi. U ota-onalar va pedagoglarga murojaat qilib: bola bilan to’g’ri, hissiy jihatdan ongli aloqa qilmoq zarurligini, voyaga yetganlar o’z hissiyotlarini boshqarishni va mos munosabat ko’rsatishni o’rganishi lozimligini aytadi. Masalan, o’yin maydonchasida o’ynayotgan bolani tasavvur qilsak: bola u yoqqa yugurayapti, bu yoqqa chopayapti. Oxiri “tap” etib tizzasini bilan yiqildi. Tizzasidan biroz qon sizib chiqdi va bola bor ovozi bilan yig’lashni boshladi. Onasi uni ko’rib, shoshgancha yoniga bordi-da: “Bo’ldi-bo’ldi bolajonim”, dedi va yarasini puflab “bo’ldi yig’lama, o’tib ketdi, og’rimayapti” – deya bolaning hissiyotlarini bostirishga harakat qildi. Lekin unday emas, o’tib ketmadi, bolaning oyog’i hali ham og’riyapti. Hissiy jihatdan “mustahkam” bola tarbiyalash uchun, avvalo – kattalarning ongli bo’lishi va misol bo’lishi kerak. Ya’ni bunday vaziyatlarda bolaning hissiyotlarini tushungan holda kattalar: “Bilaman joning og’riyapti, kel, uni silab qo’yaman. Yarangni tozalab, malham qo’yamiz. Balki biroz og’rig’i yengillashadi, sekin asta tuzaladi”, deb ularga hamdard bo’lish to’g’ri bo’ladi. Kangal bolaning ongli emotsional rivojlanishi – bolaga nafaqat aqliy, balki psixologik farovonlik, ijtimoiy moslashuv, kelajakda mustahkam shaxs bo’lib shakllanishi uchun juda muhim deb hisoblaydi. Pedagogning bolalarni o’yin orqali rivojlantirish haqidagi qarashlaridan foydalangan holda maktabgacha ta’lim tashkilotlarida foydalanish uchun ishlab chiqilgan o’yinlardan ba’zilarini keltiramiz.

Emotsional savodxonlikni shakllantirish.

His-tuyg’ular kartochkalari bilan o’yinlar – bolaga turli hissiy holatlarni tanish, farqlash va to’g’ri ifodalashni o’rgatuvchi visual kartochkalardir (quvonch, g’azab, qo’rquv, hayajon, xafalik va boshqalar). Bu o’yinlar orqali bola: his-tuyg’ularini tan oladi, hisni to’g’ri nomlashni o’rganadi, hissiyotlar sabablarini tushuna boshlaydi, emotsiyalarni boshqarish ko’nikmalari rivojlanadi hamda ijtimoiy muloqot yaxshilanadi. Qanday o’ynaladi?

“Kartochkani top” o’yini:

1. Stolga bir nechta his-tuyg’u kartochkalarini qo’ying.
2. Bola bugungi kayfiyatiga mos kartochkani tanlaydi.
3. “Nega aynan shu?” deb so’raladi – bu bolaning o’zini anglashini kuchaytiradi.

“Hikoya davom ettir” Kartochkani ko‘rsatasiz. Bola shu hissiyotga mos bir qisqa voqeani aytib beradi. Masalan: “Bu bola nimaga xursand deb o‘ylaysan?”

“Hissiy pantomima” Bir kartochkani tanlab, undagi hisni tana harakati, yuz ifodasi bilan ko‘rsatadi. Boshqalar uni topadi.

“Men shunday his qilganda...” Kartochka tanlanadi. Bola jumlaning davom ettiradi:

- “Men jahlim chiqqanda chuqur nafas olaman.”
- “Men qo‘rqqanimda onamni chaqiraman.”

Natija: Bola o‘z hislarini tanib, nomlab, tushuntira oladi — bu esa emotsional savodxonlikning eng muhim bosqichi.

Syujetli-rolli o‘yinlar orqali hislarni nomlash va tushuntirish – bu bolalar kichik hayotiy sahnalarni (do‘konga borish, shifokorga borish, tug‘ilgan kun, bog‘chaga kelish, o‘yinchoq talashish va h.k.) rollarga bo‘linib ijro etadigan o‘yinlar. Bu o‘yinlar emotsional savodxonlikni rivojlantirish uchun juda samarali, chunki bolalar real hayotdagi hissiy hollarini o‘yin orqali boshdan kechiradilar. Bunda har xil vaziyatda qanday his qilinishini bilib oladi, o‘z hissiyotlarini nomlay oladi, hisning sababini tushuntirishni o‘rganadi va ijtimoiy vaziyatlarda qanday munosabat bildirish kerakligini mashq qiladi. Bu qanday o‘ynaladi? Avval rollarga bo‘linadi: Masalan, “Do‘konda” o‘yinida sotuvchi, xaridor, navbat kutayotgan bola.

Har bir rolning holati bor:

- Sotuvchi xursand bo‘lishi mumkin.
- Xaridor yetarli pul bo‘lmaganda xafalik.
- Navbat kutayotgan bola sabrsiz (hayajon, hafsalasi pir bo‘lishi mumkin).

Hislarni nomlash. O‘yin davomida kattalar savol berishi mumkin: “Sotuvchi hozir qanday kayfiyatda?”, “Xaridor nima his qilyapti?”, “Navbat kutgan bola sabrsiz bo‘lyaptimi?” Bu bola uchun “hissiy lug‘at”ni kengaytiradi.

Hislarni tushuntirish. O‘yin tugagach, suhbat: “Nega xaridor xafalik his qildi?”, “Nega bola xursand bo‘ldi?”, “Bunday vaziyatda nima qilish kerak?”

Turli vaziyatlarni yaratish. Masalan: O‘yinchoq talashish, tug‘ilgan kun, shifokorga borish, yangi guruhga kirish, yo‘qotilgan buyum.

Har bir vaziyatda hislarni nomlash va izohlash ishlatiladi. Buning natijasida bola turli hissiyotlarni angelaydi, ularni nomlay oladi, sababini izohlashni biladi, ijtimoiy vaziyatlarda o‘zini boshqarishga o‘rgana boshlaydi.

“Men his qilyapman...” deb boshlanuvchi muloqot mashqlari – bu mashqlar bolaga o‘z hissiyotlarini to‘g‘ri ifodalash, nomlash va tushuntirishni o‘rgatadi. “men his qilyapman...” deb nomlanishi – bu “Men xabarlarini” (I-messeges) deb ataladigan uslub bo‘lib, bola his-tuyg‘ularini ayblamasdan, janjalsiz va aniq tarzda bayon qiladi. Bu mashqlar bolaga o‘z ichki holatini so‘z bilan ifodalashga, emotsiyalarni boshqarish ko‘nikmalarining kuchayishiga, mojarolarni tinch yo‘l bilan hal qilishga hamda o‘z hissining anglash – tushuntirish – ifodalash zanjirini mustahkamlashga yordam beradi. Bola quyidagicha gap boshlaydi: “Men his qilyapman, chunki...”, “Men hozir ... his qilyapman, agar...”, “Men ... his qilyapman, shuning uchun...”

Masalan:

- “Men hafaman, chunki o‘yinchoq sindi.”
- “Men xursandman, chunki siz meni maqtadingiz.”
- “Men jahlim chiqyapti, chunki o‘yinchoqni meniki deb o‘ylagandim.”

Turli hissiyotlar bilan mashq qilish. Kartochkalar bilan hissiyot kartochkasidan birini tanlaydi va gapni davom ettiradi: - “Men hayajonlanayapman, chunki yangi o‘yin boshlanyapti.” Yoki “Men qo‘rqyapman, chunki xona qorong‘u.”

Rolli vaziyatlar bilan. Katta vaziyat beradi: “Do‘sting sen bilan o‘ynashni xohlamadi. Sen nima his qilyapsan?” Bola izohlaydi: “Men xafaman, chunki u meni qabul qilmadi”. O‘yin tugagach savol: “O‘yinda yutqazganingda nima his qilyapsan?” “Men biroz achchiqlanyapman, lekin urinib ko‘raman.”

Hisni sababi bilan bog‘lash. Har mashqdan so‘ng savol: “Nega shunday his qilyapsan?”, “Bu hissiyot senga qaysi joyda yordam beradi?”, “Uni qanday yengishing mumkin?” Bu bolada o‘z-o‘zini anglash va o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini kuchaytiradi. Mashqning muhim maqsadi – bola ayblamaydi, “Sen meni xafa qilding!” demaydi. Buning o‘rniga: “Men xafa bo‘ldim, chunki...” – deb o‘z holatini tinch va sog‘lom tarzda tushuntiradi.

Konfliktlarni boshqarish va empatiya. Rolga kirish o‘yinlari yordamida bola:

Boshqalarning nuqtai nazarini tushunish – bolaning “faqat o‘zimning hisim emas, boshqalar ham nimadir his qiladi” degan fikrni anglash qobiliyati.

Rolga kirish o‘yinlaridagi natija: Bola biror rolda o‘ynab, boshqa odamning “ko‘zi bilan qarashni” o‘rganadi. Masalan, o‘yinchoqni talashish sahnasida bola bir marta “o‘yinchoqni berilmagan bola”, keyin esa “o‘yinchoqni olgan bola” rolda bo‘ladi. Shunda u tushunadi: “Men olganimda u xafalik his qiladi.” Yoki “Men bermaganimda u jahli chiqadi.” Bu ko‘nikma empatiyaning eng birinchi qadami.

Tushunmovchiliklarni tinch yo‘l bilan hal qilish – bola mojaroni urushmasdan, baqirmasdan, yig‘lamasdan, so‘z orqali hal qilishni o‘rganishidir. Rolga kirish o‘yinlaridagi natija: Mojaro sahnalari (navbat kutish, o‘yinchoq bo‘lishish, o‘rtoqning xafa bo‘lishi) ijro qilinadi. Katta “tinch yechim” usullarini ko‘rsatadi:

- “Gaplashib olaylik...”
- “Navbat bilan o‘ynaymiz...”
- “Men buni hozir sen bilan bo‘lishaman...”
- “Keling, kelishuv qilamiz...”

Bola ko‘radi: mojaroni kuch bilan emas, muloqot bilan ham yechish mumkin.

Empatiya ko‘nikmalarini rivojlantiradi – bu boshqalarning hissini sezish, tushunish va unga mos munosabat ko‘rsatish qobiliyati. Rolga kirish o‘yinlaridagi natija: Bola bir kishi roli orqali uning hislarini his qilganday bo‘ladi. Katta savollar beradi:

- “Bu bola nega xafa bo‘ldi deb o‘ylaysan?”
- “Sen uning o‘rnida bo‘lsang nima qilarding?”
- “Hozir unga qanday yordam berish mumkin?”

Shundan so‘ng bola ataylab: tasalli berishni, kechirim so‘rashni, boshqaga mehribon javob qaytarishni o‘rganadi. Bu bola xarakterida mehribonlik, yumshoqlik, ijtimoiy sezgirlik shakllanishiga yordam beradi.

Rolga kirish o‘yinlari orqali bola boshqa odamning hisini anglaydi → empatiya. Hisni tushunadi → mojaroni tushunadi. To‘g‘ri javob qaytaradi → tinch yechim.

Tinchlantiruvchi sensor faoliyatlar. Kangal amaliyotida “emosional dam olish zonalari” alohida o‘rin tutadi. Bunda:

- qum, suv, sensor idishchalar;
 - yumshoq burchaklar;
 - musiqa bilan uyg‘unlashtirilgan sokin mashg‘ulotlar
- bolaning o‘zini muvofiqashtirishiga yordam beradi.

Saniye Benjik Kangalning o‘yin pedagogikasi zamonaviy maktabgacha ta‘lim tizimida bolaga qaratildan ta‘limning integrativ va ilg‘or ko‘rinishi sifatida katta nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Uning pedagogik qarashlari bolani faqat o‘rganuvchi sifatida emas, balki

faol, ijodkor va hissiy tarafdin ongli shaxs sifatida rivojlantirishga qaratilgan. Bu metodika bir nechta asosiy tamoyillar orqali amalga oshadi.

Birinchidan, bolaning tabiiy rivojlanish ritmini hurmat qilish tamoyili asosiy o'rin tutadi. Pedagog bolaning har bir rivojlanish bosqichini, uning o'ziga xos sur'at va xususiyatlarini e'tiborga olgan holda ta'lim jarayonini barpo etadi. Bu yondashuv bolaning o'ziga bo'lgan ishonchi va mustaqilligini mustahkamlashga zamin yaratadi.

Ikkinchidan, o'yin faoliyatini ta'limning markaziy vositasiga aylantirish tamoyili o'quv jarayonini bolaga qiziqarli va samarali qilishga yordam beradi. O'yin orqali bola nafaqat jismoniy va intellektual ko'nikmalarini rivojlantiradi, balki ijtimoiy, muloqot va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini ham yuzaga chiqaradi. O'yin, shuningdek, bolaning ijodkorligini rag'batlantiradi va o'z fikrini erkin ifodalash imkoniyatini yaratadi.

Uchinchidan, emotsional intellektni erta yoshdan shakllantirish tamoyili bolaning hissiy rivojlanishiga alohida e'tibor beradi. Saniye Benjik Kangal fikricha, bolada empatiya, o'z hissiyotlarini anglashi va boshqarishi, shuningdek, boshqalar bilan munosabatda bo'lish ko'nikmalari erta davrdan rivojlantirilishi lozim. Bu bolani nafaqat ijtimoiy jihatdan moslashuvchan, balki ruhiy jihatdan barqaror shaxs sifatida shakllantirishga ko'mak beradi.

Shu bilan birga, Saniye Benjik Kangalning yondashuvi bolaga yo'naltirilgan, faoliyatga asoslangan, integrativ pedagogika sifatida maktabgacha ta'lim tizimida dolzarbdir. Uning metodikasi bolaning shaxsiy qobiliyatlarini, hissiy va ijtimoiy ko'nikmalarini mos tarzda rivojlantirishga imkon beradi, shuningdek, pedagog va ota-onalar uchun ham samarali yo'riqnoma bo'lib xizmat qiladi. Natijada, bu yondashuv bolalarning yaxlit rivojiga keng imkoniyatlar yaratadi, ularni ijodkor, mustaqil va hissiy jihatdan ongli shaxslar sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Kangal, S. B. (2020). *Gelişimsel Eğitim Modeli*. Ankara: Çocuk Gelişimi Enstitüsü.
2. Piaget, J. (1972). *The Psychology of the Child*. New York: Basic Books.
3. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in Society*. Cambridge: Harvard University Press.
4. Montessori, M. (1967). *The Absorbent Mind*. New York: Dell Publishing.
5. Lillard, A. (2005). *Montessori: The Science Behind the Genius*. Oxford University Press.
6. Edwards, C., Gandini, L., & Forman, G. (1998). *The Hundred Languages of Children*. Ablex Publishing.
7. Mayer, J., & Salovey, P. (1997). "What is Emotional Intelligence?" In P. Salovey & D. Sluyter (Eds.), *Emotional Development and Emotional Intelligence*.
8. Denham, S. (2015). *Early Childhood Emotional Competence*. Guilford Press.

UO'K: 796.01:008(575.1)

ERKIN KURASHCHILARDA TEZLIK SIFATINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHINING USLUBIY ASOSLARI

<https://zenodo.org/records/18754676>

Xurshidbekov Abbosbek Murodbek o'g'li
Andijon davlat pedagogika instituti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada erkin kurashchilar mashg'ulot jarayonida tezlik sifatini rivojlantirishga qaratilgan uslubiy yondashuvlar, vositalar va mashqlar tizimi yoritib berilgan. Tezlik kurashchining texnik va taktik mahoratini samarali namoyon etishida hal qiluvchi omil sifatida ko'rib chiqiladi. Unda sportchining asab-mushak faoliyatini faollashtirish, texnik harakatlarni maksimal tezlikda va ratsional tuzilmani buzmaganda bajarish imkonini beruvchi mashqlar majmuasi tahlil qilingan. Shuningdek, qulay, murakkab, oddiy, tasodifiy va musobaqa sharoitlarida tezlikni rivojlantirish usullari,*

